

TIJORAT BANKLARI RESURSLARI MIQDORINI OSHIRISHDA DEPOZITNING O'RNI: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA

Olimjon Sattorov Berdimuratovich

ATB "O'zsanoatqurilishbank"

Komplaens-nazorat departamenti menejiri

Annotatsiya: Maqlada banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarning deposit bazasini optimallashtirish orqali resurs miqdorini oshirishdan iborat, deposit bazasini miqdorini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shu bilan birgalikda tijorat banklar jami depozitlar miqdori, uning tahlili, tijorat banklar depozitlari miqdorini oshirishdagi muammolari, imkoniyatlari hamda tijorat banklar depozitlarini optimallashtirish yo'llari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat bank, deposit operatsiyalari, muddatli deposit, talab qilib olunguncha deposit, jamg'arma deposit, resurs baza.

Abstract: The article describes the theoretical and practical aspects of increasing the deposit base, which consists in increasing the amount of resources by optimizing the deposit base of commercial banks in the conditions of interbank competition. At the same time, suggestions and recommendations were given regarding the amount of total deposits of commercial banks, its analysis, problems and opportunities in increasing the amount of deposits of commercial banks, and ways to optimize deposits of commercial banks.

Key words: commercial bank, deposit operations, term deposit, demand deposit, savings deposit, resource base.

Аннотация: В статье описаны теоретические и практические аспекты увеличения депозитной базы, заключающиеся в увеличении объема ресурсов за счет оптимизации депозитной базы коммерческих банков в условиях межбанковской конкуренции. При этом были даны предложения и рекомендации относительно объема совокупных депозитов коммерческих банков, его анализа, проблем и возможностей увеличения объема депозитов коммерческих банков, путей оптимизации депозитов коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческий банк, депозитные операции, срочный вклад, вклад до востребования, сберегательный вклад, ресурсная база.

KIRISH

Mamlakatimizda aholi daromadining doimiy ortib borishi natijasda aholining banklarda jamg'arayotgan omonatlarining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmonida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish kabi talablar qo'yildi. Bundan tashqari Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish¹ kabi ko'rsatkichlar belgilab olindi. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHЛИLI

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmoni

O.I.Lavrushin, U.O'.Azizov, T.M.Karalievlar fikriga ko'ra, "kredit tashkilotlarining resurslaribankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, u aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi. Bank resurslari kredit tashkilotlarining balans passiv qismida aks etadi"²

Mahalliy olimlarimizdan professor Sh.Z.Abdullaevaning fikricha, "tijorat banklarining resurs bazasi uning kredit potensiali darajasini belgilaydi. Bank tomonidan tashkil qilingan resurs baza turli xil kreditlar berish va investitsiyalarni moliyalashtirish va boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin"³

Professor A.A.Omonov o'z ilmiy tadqiqotlarida "tijorat banklari resurslari – ma'lum shartlar asosida iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va xususiy mablag'lar (kapital)ni shakllantirish hisobiga tashkil topgan moliyaviy qiymatdir"⁴ - deb ta'kidlaydi.

U.D.Ortiqov "bank resurslari - bu bank siyosati doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan, bankning o'z mablag'laridan va jalb qilingan mablag'laridan tashkil topgan, bankning daromad olishga asos bo'lувчи zahira va imkoniyatlarning yig'indisi"⁵ sifatida qaraydi.

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda bankning o'z resurslari va bank kapitali to'g'risidagi tushunchalarning turli xil ta'riflarini uchratish mumkin. Rossiyalik iqtisodchi V.P.Ivanovning fikricha «Bank kapitali - bir tomonidan bozor iqtisodiyoti mahsuli, ikkinchi tomondan esa u taraqqiyotning zaruriy shartidir»⁶.

Mahalliy iqtisodchilardan A. Omonov "Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo'lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir"⁷ deb ta'kidlaydi.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi banklararo raqobat sharoitida tijorat banklar resurs bazasi tarkibidagi deposit mablag'larni optimallashtirish yo'llarini ko'rib chiqishda ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Mavzuni o'rganish jarayonida bank tizimining amaliy ma'lumotlarini statistik, taqqoslama tahlil hamda amaliy materiallarni jamlash kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tijorat banklarining resurs bazasini oshirish dolzarb masalardan bo'lib hisoblanmoqda. Bu borada bank tizimimizda asosiy salmoqni egallayotgan deposit bazaning optimal tarkibini shakllantirish eng dolzarb hisoblanadi bu borada depozitlarning uzoq muddatli barqaror mablag'lar orqali oshirish muhim omil hisoblanadi.

1-jadval

Tijorat banklari resurs bazasi miqdori⁸, (mlrd. so'mda)

	2020	2021	2022	2023	2024
--	------	------	------	------	------

² Lavrushin O.I., Azizov U.U., Karaliev T.M Bankovskoe delo. Pod redaksii O.I. Lavrushina M.KRUNOS. 2019 g. st. 224

³ Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O'. Bank ishi. Darslik. -T.: TMI, Iqtisod-Moliya, 2019 yil, 145 b.

⁴ Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, -T.: BMA, 2008. 11 b. 9

⁵ Ortiqov U.D. "Bank resurslari va ularni boshqarish" Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2008 y. 7 b.

⁶ В.Б.Кисиев «Управление банковским капиталом» Москва, «Экономика», 1997. с 18.

⁷ A.A.Omonov "Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari".i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya avtoreferati.T.2004,-7 b.

⁸ Cbu.uz-Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Majburiyatlar					
Depozitlar	91 009,0	114 746,9	156 189,8	216 737,5	241 686,6
Markaziy bankning hisobvaraqlari	1 686,6	1 089,2	708,8	784,3	1 345,1
Boshqa banklarning mablag‘lari - rezidentlar	9 869,4	13 001,4	13 288,6	18 780,8	24 577,0
Boshqa banklarning mablag‘lari - norezidentlar	922,3	3 175,4	4 670,8	22 798,5	20 073,5
Olingan kreditlar va lizing	105 252,2	151 704,0	173 750,3	186 614,5	224 350,7
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	2 872,7	9 523,0	10 612,7	10 915,2	13 160,6
Subordinar qarzlar	3 978,3	3 999,5	4 248,5	6 619,3	9 653,0
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	2 331,2	3 714,8	3 960,0	5 487,1	8 106,5
Boshqa majburiyatlar	3 774,5	6 815,6	6 575,4	8 443,6	12 124,9
Jami majburiyatlar	221 696,0	307 769,9	374 004,9	477 180,8	555 077,9
Kapital					
Ustav kapitali	41 877,0	44 655,8	54 760,0	59 856,7	68 643,0
Qo‘sishimcha kapital	142,7	434,6	675,5	997,5	1 338,8
Zaxira kapitali	3 844,5	5 205,9	8 452,2	7 320,6	11 152,6
Taqsimlanmagan foyda	5 166,4	8 055,0	7 029,9	11 390,6	15 944,8
Jami kapital	51 030,7	58 351,3	70 917,6	79 565,4	97 079,2

Jadval ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak umumiyl resurs tarkibida asosiy salmoqni majburiyatlar egallamoqda. Majburiyatlar ichida deposit mablag'lar miqdori eng yuqori ulushni egallamoqda, ya'ni, 2024-yil 12-yanvar holatiga 43.5 foizni tashkil etmoqda bu ko'rsatkich o'tgan 2020-yilga nisbatan 265.56 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Tijorat banklaridagi depozitlar qoldig‘i⁹, (mlrd. so‘mda)

Sana	Xammasi	milliy valyutada			chet el valyutasida		
		Jami	шундан:		Jami	шундан:	
			jismoni y shaxslar	yuridik shaxslar		jismoni y shaxslar	yuridik shaxslar
1	2	3	4	5	6	7	8
01.01.2020	91 009,0	51 040,0	16 820,1	34 219,9	39 969,0	8 132,9	31 836,0
01.01.2021	114 746,9	65 318,3	21 427,4	43 891,0	49 428,5	10 384,4	39 044,2
01.01.2022	156 189,8	95 578,2	29 867,8	65 710,4	60 611,7	12 508,9	48 102,8

⁹ Cbu.uz-Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi



01.01.202 3	216 737,5	131 794,8	45 169,8	86 625,0	84 942,7	23 578,7	61 364,0
01.01.202 4	241 686,6	169 515,7	63 651,1	105 864,6	72 170,9	29 141,5	43 029,5

Statistik tahlillarga tayanadigan bo‘lsak, oxirgi besh yillikda 2.65 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin, bunga ko‘ra milliy valyutadagi depozitlar miqdori asosiy salmoqni egallamoqda. Milliy valyutadagi depozitlar tarkibida asosiy ulush yuridik shaxslar tomonidan qo‘yilgan mablag‘lar asosiy ulushni tashkil etmoqda. 2024-yil 1-yanvar holatiga milliy valyutadagi depozitlarning deyarli 62.5 foizini tashkil etgan bo‘lsa o‘tgan 2020-yilga nisbatan 3.1 barobarga ortgan.

3-jadval

Tijorat banklaridagi depozitlar qoldig‘i¹⁰, (mlrd. so‘mda)

Sana	Jami	shu jumladan:		
		talab qilib olinguncha	jamg‘arma	muddatli
1	2	3	4	5
01.01.2020	91 009,0	40 603,3	8 494,0	41 911,7
01.01.2021	114 746,9	53 819,2	11 115,6	49 812,1
01.01.2022	156 189,8	69 207,7	13 746,4	73 235,7
01.01.2023	216 737,5	100 683,3	23 289,8	92 764,5
01.01.2024	241 686,6	88 036,0	24 051,2	129 599,4

Jadvalda depozitlarning turlari bo‘yicha taxlil qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda muddatli depozitlar asosiy ulushni egallamoqda, ya’ni: 53.6 foizni tashkil etmoqda bu ko‘rsatkich o‘tgan 2020-yilda 46 foizni tashkil etgan bundan xulosa qiladigan bo‘lsak aholining daromadi ortgan sari mablag‘larni jamg‘arishga bo‘lgan qiziqishini orttirmoqda. Bu esa tijorat banklarida uzoq muddatli barqaror mablag‘lar miqdorining ortishidan dalolat bermoqda.

4-jadval

**Yuridik shaxslarning tijorat banklaridagi milliy valyutadagi depozitlari
qoldig‘i¹¹, (mlrd. so‘mda)**

Sana	Jami	shu jumladan:		
		talab qilib olinguncha	jamg‘arma	muddatli
1	2	3	4	5
01.01.2020	34 219,9	16 038,7	2 234,8	15 946,3

¹⁰ Cbu.uz-Markaziy bank ma’lumotlari asosida tayyorlandi

¹¹ Cbu.uz-Markaziy bank ma’lumotlari asosida tayyorlandi



01.01.2021	43 891,0	21 471,9	2 328,2	20 090,9
01.01.2022	65 710,4	27 694,5	4 919,1	33 096,7
01.01.2023	86 625,0	31 761,4	10 581,2	44 282,4
01.01.2024	105 864,6	34 283,5	8 093,3	63 487,8

Jadval ma'lumotlariga ko'ra yuridik shaxslarning tijorat banklaridagi milliy valyutadagi depozitlar tarkibida muddatli depozitlar miqdori oxirgi uch yillikda talab qilib olinguncha depozitdan oshganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich 2024-yil boshiga ko'ra 60 foizni tashkil etmoqda. Lekin jamg'arma depozitlar miqdori 2024-yilda 2023-yilga nisbatan kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari resurs bazasini korxonalarining depozit mablag'lari o'mni beqiyosdir. Depozitlar banklar uchun asosiy manba hisoblanib, undan jalb qilingan mablag'lar bank faoliyatining rivojlanishi va likvidligini ta'minlashda asosiy rol o'yнaydi. Aynan depozitlar hisobiga tijorat banklari kredit portfelini shackllantiradi, turli foydani moliyalashtirishga ega bo'ladi va o'zining iqtisodiy resurs bazasini kengaytiradi.

Banklar depozitlar evaziga omonatchilarga daromad keltirish orqali jamg'arma motivatsiyasini oshirishadi va iqtisodiyotda natijalarning olishini jadallashtirish. Shu bilan birga, ko'proq banklarning iqtisodiyotiga investitsiyalarini ijobjiy ta'sir qiladi, bu esa iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib keladi.

Depozitlarni jalb qilishda banklar orqali turli xil omonat turlarini taklif qiladi va muhitida yanada faol va jozibador sharoitlarni ta'minlashga harakat qiladi. Shu sababli, tijorat banklari uchun depozit resurslarini yo'qotish strategiyasi iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim vositasi bo'lib, iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmoni
2. Lavrushin O.I., Azizov U.U., Karaliev T.M Bankovskoe delo. Pod redaksii O.I. Lavrushina M.KRUNOS. 2019 g. st. 224
3. Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O'. Bank ishi. Darslik. -T.: TMI, Iqtisod-Moliya, 2019 yil, 145 b.
4. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, -T.: BMA, 2008. 11 b. 9
5. Ortiqov U.D. "Bank resurslari va ularni boshqarish" Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2008 y. 7 b.
6. B.V.Кисилев «Управление банковским капиталом» Москва, «Экономика», 1997. с 18.
7. A.A.Omonov "Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari".i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya avtoreferati.T.2004,-7 b.
8. cbu.uz-Markaziy bank sayti